HSR (LONDON),
HOUGHTON STREET REVIEW JOURNAL
ISSN: 2058-5519|Impact factor-15.9
http://houghtonstreetreview.com/index.php/hsr

JALOLIDDIN RUMIY ASARLARI QÖLYOZMALARINING BADIIY-BEZAK XUSUSIYATLARI TASNIFI

ХУДОЖЕСТВЕННО-ДЕКОРАТИВНЫЕ ОСОБЕННОСТИ И КЛАССИФИКАЦИЯ РУКОПИСЕЙ ПРОИЗВЕДЕНИЙ ДЖАЛАЛАДДИНА РУМИ

ARTISTIC AND DECORATIVE FEATURES AND CLASSIFICATION OF THE MANUSCRIPTS OF JALAL AL-DIN RUMI'S WORKS

Omonova Feruza Abdusattor qizi
ÖzR FA San'atşunoslik instituti
1-kurs tayanç doktoranti
+998909701303
kenjayevaferuza25@mail.com
doi:**https://doi.org/10.5281/zenodo.24360423**

Annotatsiya : Uşbu maqolada Özbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Şarqşunoslik instituti fondida saqlanayotgan Jaloliddin Rumiy asarlari va ularnining xususiyatlari tahlil qilinadi.

Şuningdek, Rumiy asarlarining bezatilişida Şarq kitobat san'atining özига xos jihatlari va ularning Markaziy Osiyo madaniy merosidagi örni körsatib berildi. Tadqiqot natijalari bezakli qölyozmalarni san'atşunoslik nuqtai nazaridan örganişda muhim manba bölib xizmat qiladi.

Kalit sözlar: Şarqşunoslik instituti, asosiy fond, Jaloliddin Rumiy, Masnaviy ma'naviy, Devoni Şams Tabriziy, Fihi ma fihi, qölyozma, kitobat, san'at, ziynatli qölyozmalar, muhr, zarhal bezak, tilla.

Jaloliddin Rumiy Şarq mumtoz adabiyotining tasavvuf yönalişida sermahsul ijod qilgan yirik şoir va mutafakkirdir. Behad iqtidorli şoirning asarlari asrlar davomida musulmon Şarqining turli hududlarida köplab nusxalarda köçirib kelingan. Ularning bir qançasi gözal husnixatlarda yozilişi va yuksak badiiy bezaklari bilan alohida ajralib turadi. Turon ahli Jaloliddin Rumiyni Nizomiddin Ganjaviy, Xusrav Dehlaviy, Fuzuliy, Nasimiy, Abdurahmon Jomiy, Alişer Navoiy, Zahiriddin Muhammad Boburlar qatorida öz şoiri deb bilgan. Bu borada ular mutlaqo haqdirlar. Şu sababdan ularning asarlari qölyozmalari yurtimizda juda köplab nusxalarda köçirilgan va bugungaça saqlanib qolgan. Bu qölyozmalar Şarq kitobat san'ati rivojiga ham mislsiz katta ta'sir körsatgan. Bunga istalgança misollar keltirsa böladi. Tadqiqotçilar yurtimizda XX asrga qadar masnaviyxonlik keng tarqalganini aniqlaşgan. Hatto "masnavixonlik" uçun atayin vaqf mulklari ajratilgan ekan.[1] An'anaga aylangan bu ijodiy tadbirda asosan, hazrat Jaloliddin Rumiy masnaviylari öqilgan. Uşbu tadqiqotning maqsadi Şarqşunoslik instituti fondidagi Jaloliddin Rumiy asarlari bezakli qölyozmalarining badiiy xususiyatlarini aniqlaş, ularning Turon kitobat san'ati rivojidagi tarixiy örnini yoritişdan iboratdir.

Şarq kitobat san'atida qölyozmalarni bezaş an'anasi xattotlik, naqqoşlik, muzahhiblik va muqovasozlik kabi san'at turlarining uzviy uyğunlaşuvi asosida şakllangan. Jaloliddin Rumiy asarlari

[1] Абдусаттор Жуманазар. Бухоро таълим тизими тарихи. – Т.: Академнашр, 2017. – Б.195, 215, 335.

HSR (LONDON),
HOUGHTON STREET REVIEW JOURNAL
ISSN: 2058-5519|Impact factor-15.9
http://houghtonstreetreview.com/index.php/hsr

bunga yorqin misoldir. Şoirning ÖzR FA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Şarqşunoslik instituti asosiy fondida saqlanayotgan qölyozma nusxalarining aksariyati Şarq kitobat san'atining noyob namunalari hisoblanadi. Ular mohirona çizilgan turli naqşlar, gözal va mukammal unvon sahifalari, öquvçi qalbiga huzur bağişlovçi nafis bezaklar bilan ziynatlangan.

Bu işda dastlab, Jaloliddin Rumiyning Şarqşunoslik instituti asosiy fondida saqlanayotgan asarlari qölyozmalari aniqlandi va ularning röyxati tuzildi. Söngra ular bezakli va bezaksiz hamda saqlaniş holatiga köra turlarga ajratildi. Qölyozma nusxalarining har biriga alohida tavsif yozildi. Mazkur tadqiqotda Jaloliddin Rumiy asarlarining asosiy fondda saqlanayotgan qölyozma nusxalari sonini imkon boriça töliq aniqlaşga harakat qildik. Hozirgaça ularning umumiy soni 101 nusxaga yetdi. Şulardan 42 qölyozma ziynatlangan va 59 nusxasi bezaksiz matnlardan taşkil topgan.

Asosiy fondda saqlanayotgan Rumiy asarlarining eng köp uçraydiganlari quyidagi ketma-ketlikda "Masnaviy ma'naviy", "Devoni ŞamsTabriziy" va "Fihi ma fihi" qölyozma nusxalari bölib çiqdi. Ular orasida ham gözal badiiy bezaklar bilan san'at asari darajasida yaratilgan namunalar bor. Ayrimlari sodda va oddiy usulda kitobat qilingan. Bunday xilma-xillik Jaloliddin Rumiy asarlariga barça zamonlarda ommaviy qiziqiş va ma'naviy ehtiyoj katta bölgani bilan izohlanadi. Rumiy asarlari jamiyatning turli ijtimoiy qatlami vakillari uçun köçirilgan. Boy-badavlat toifaga mansub kişilar bu asarlaning san'at darajasida köçirilişi uçun mablağlarini ayamagan. Oddiy nusxalar köproq jamiyatning omma foydalanişi va kitobat san'ati vakillarining çeklangan imkoniyatlari darajasida tayyorlangan. Ba'zi kişilar bu asarlarga qiziqişlari tufayli özlari köçirgan.

Tadqiqot natijalari Jaloliddin Rumiy asarlari Özbekiston (Movarounnahr) va jahon kitobat san'ati rivoji tarixida alohida muhim örin tutişini körsatmoqda. Ayniqsa, bu asarlar qölyozmalarida uçraydigan xattotlik, zarhal hamda boşqa turli ranglar bilan işlangan gözal bezaklar, unvon, lavhalar, naqş va boşqa badiiy tasvirlar asar matnini estetik jihatdan nihoyatda mukammalaştirib, boyitgan. Öquvçi asar mazmunini tuşunişi va tasavvur qilişiga özgaça tarzda kömaklaşadi. Asar va öquvçi örtasidagi munosabatni osonlaştiradi. Şu sababdan Rumiy asarlari qölyozmalarini faqat matn va axborot taşuvçisi vosita emas, u bilan birga kitobat san'ati, badiiy bezak va qölyozma madaniyatining muhim namunasi sifatida ham örganiş maqsadga muvofiqdir.

Iş jarayonida körib çiqilgan va örganilgan qölyozma nusxalarning bezak darajasi va ijro xususiyatlaridagi farqlar yuqorida ta'kilanganidek, Rumiy asarlarining turli ijtimoiy qatlamlar va buyurtmaçilar ehtiyojiga köra kitobat qilinganini körsatmoqda. Demak, Rumiy ijodiy merosi qölyozmalarning şakllanişi va badiiy jihatdan bezatilişida asarning mazmuniy nufuzi bilan bir qatorda turli davrlarda unga bölgan ijtimoiy talab, kitobat an'analari hamda öquvçilarning estetik qaraşlarini ham özida aks ettiradi.

Aniqlangan qölyozmalar matnşunoslik va san'atşunoslik mezonlari asosida tavsiflandi hamda tasniflanib örganildi. Dastlab, ular bezak darajalariga köra quyidagi turlarga ajratildi:

Yuqori darajada ziynatlangan qölyozmalar:

Inv. 669, Masnaviy ma'naviy, forsça, tasavvufga oid, 318 varaq, 27x15 sm;
Inv. 1305, Masnaviy ma'naviy, forsça, tasavvufga oid, 575 varaq, 18.5x10.5 sm;
Inv. 2225, Masnaviy ma'naviy, forsça, tasavvufga oid, 443 varaq, 37x24 sm;
Inv. 2748, Masnaviy ma'naviy, forsça, tasavvufga oid, 28x15.5 sm;
Inv. 2749, Masnaviy ma'naviy, forsça, tasavvufga oid, 115 varaq, 27.7x16.5 sm;
Inv. 5954, Masnaviy ma'naviy, forsça, tasavvufga oid, 31.5x23 sm;
Inv. 7565, Masnaviy ma'naviy, forsça, tasavvufga oid, 23x14 sm.

HSR (LONDON),
HOUGHTON STREET REVIEW JOURNAL
ISSN: 2058-5519|Impact factor-15.9
http://houghtonstreetreview.com/index.php/hsr

Öta sodda naqşlar işlangan qölyozmalar: 4192, 8914, 11390.

Faqat tilla hoşiya bilan bezalgan qölyozmalar: 6921, 6922, 6923, 6924, 6925, 3455, 3713, 10967.

Ziynatsiz qölyozmalar: 157, 204, 521, 522, 663, 668, 1116, 1344, 1527, 1627, 1789, 2288, 2624, 2853, 2856, 3538, 3612, 3762, 3861, 4193, 5232, 5301, 6106, 6162, 6299, 6308, 6635, 7128, 7136, 7137, 7471, 7525, 7543, 7678, 8151, 8512, 9415, 9442, 10195, 10442, 10497, 10730, 11161, 11287, 11300, 11303, 11311, 11424, 11471, 11980, 12471, 12772, 12863.

Qölyozmalar orasida barça sahifalariga muhr qöyilganlarini ham alohida qayd etiş lozim. Inv. 2855, 2863, 3793 (muqovaning 4 tarafida muhr, unvon uçun ajratilgan joylarga muhr qöyilgan), 5954, 7137 (har 10, 15 sahifada). Odatda, muhr kitobning kimga yoki qaysi kutubxonaga tegişli ekanini körsatiş uçun, sahifalar yöqolişining oldini oliş, hujjat yoki qölyozmaning işonçliligini oşiriş, muhrlar orqali qölyozma egalari, kutubxonalar, kitob savdosi va qölyozmalarning köçib yurişi haqidagi ma'lumotlarni aniqlaş maqsadida qöyib kelingan.

ÖzR FA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Şarqşunoslik instituti noyob fondida badiiy va muhim ilmiy ahamiyatga ega bölgan Inv. 1305 raqami ostida saqlanayotgan "Masnaviy ma'naviy" asarining noyob qölyozmasi alohida e'tiborga loyiqdir.

Qölyozma tavsifi – Muallif: Mavlono Jaloliddin Rumiy, "Masnaviyi ma'naviy" nomli nazmiy asar. ÖzR FA ŞI, Inv. 1305, fors tilida, matn qoğozi ölçami 18,5x10,5 sm, 575 varaq, xattot mulla Ahmad Sahhof hijriy 1231 yili (1816) çiroyli nasta'liq xatida köçirgan. Asar matni Şarq qölyozmalari tuzilişi va kitob san'atidagi köpçilik şe'riy asarlarga xos an'anaviy ikki ustunda yozilgan. **Qölyozma muqovasi:** qattiq jild qoğozi, ölçami 18,7x10,6 sm, muqova yuzasiga tilla rang berilgan, markaziga yirik (turunj) va uning tepa hamda pastiga kiçik (sarturunj) an'anaviy qavariq xos bezak bosilgan. Bosma bezaklar atrofi muqova çetlari böylab ikki qator töğri çiziq va birikib, zanjir halqalarini taşkil qilgan tölqinli naqş bilan öralgan. Muqovaning ikki qanotini boğlab turuvçi çarm belboğ qizil rangda, yuqori va pastki qismiga kulrang va oç puşti rangli ipak şeroza tikilgan. Jildning içki old va ortki qismi daraxt gullari va yaproqsimon bezaklar bilan ziynatlangan.

Qölyozma varaqlarining ziynatlanişi: Asar 6 daftardan iborat, har birining birinçi varağining ikki tarafiga ham nihoyatda nafis maxsus naqş işlangan. Keyingi barça varaqlar ham asosi tilla va unga uyğunlaştirib kök, oq rangdagi hoşiyali bezak bilan ziynatlangan. Barça varaqlar yuzasiga tilla böyoq saçratilgan.

Daftar ul-avval (1a): Birinçi varağı yuzasi töliq tilla rangda böyalgan. Uning sirti lojuvard, töq jigarrang, oq, puşti ranglar bilan mohirona nafis bezak işlangan.

Daftari duvvum (94b – 95a): Bu ikkinçi daftarning birinçi varağı yuzasi ham oldingisi singari töliq tilla rang bilan böyalgan va lojuvard, töq jigarrang, oq, puşti, oç yaşil böyoqlar bilan naqşlangan. U oldingisini takrorlamaydi, uning gözalligini davom ettirgan va qölyozmaning badiiy qiymatini oşirgan.

Daftari sevvum (180b – 181a): Uçinçi daftarning birinçi varağı yuzasi ham oldingilari kabi töliq tilla rang bilan böyalgan va lojuvard, töq jigarrang, oq, puşti, oç yaşil böyoqlar bilan bezalgan. Oldingilarini takrorlamaydi, u ham ajoyib badiiy san'at asari darajasida işlangan. Faqat, ranglar biroz xiralaşgan.

Daftari çahorum (287b – 288a): Törtinçi daftarning birinçi varağı yuzasi ziynatlanişi ham oldingilari uslubida bajarilgan. Töliq tilla rang bilan böyalgan va lojuvard, töq jigarrang, oq, puşti, oç

HSR (LONDON),
HOUGHTON STREET REVIEW JOURNAL
ISSN: 2058-5519|Impact factor-15.9
http://houghtonstreetreview.com/index.php/hsr

yaşil böyoqlar bilan naqşlangan. Bu naqşda qizil hamda töq yaşil rang köproq aralaşgan va manzara ta'sirini kuçaytirgan.

Daftari panjum (372b – 373a): Beşinçi daftarning birinçi varağı yuzasi ham oldingilari kabi töliq tilla rang bilan böyalgan va lojuvard, töq jigarrang, oq, oç yaşil böyoqlar bilan naqşlangan. Bunda endi qizil rang örnini sabzi rang egallagan. Naqşlari oldingilarini takrorlamaydi, uning Özi alohida mukammal badiiy asar maqomiga yetkazilgan.

Daftari şişum (465b – 466a): Oltinçi daftarning birinçi varağı yuzasi ham oldingilari singari töliq tilla rang bilan böyalgan va lojuvard, töq jigarrang, oq, yaşil böyoqlar bilan naqşlangan. Bu naqş qölyozmadagi yakunlovçi yirik bezak, naqqoş asar ziynatlari ketma-ketligi va ta'sirçanligini juda mohirona oşirib borgan.

Qölyozmaning saqlanişi: Muqovaning törtta qirrasi ham qölyozmadan köp foydalanilgani natijasida biroz yemirilgan va ezilgan. Şunga qaramay, butun saqlangan. Muqovaning pastki qismining ayrim joylarida köçib, uzilgan örinlar bor. Içki qismi ranglari yaxşi saqlangan.

Varaqlar butun holatda zararsiz saqlangan. Muqova va matn varaqlarini boğlab, qölyozmani mustahkamlab turuvçi işlar uzilişi oqibatida ba'zi varaqlar jilddan taşqariga çiqib qolgan. Biroq tuşib qolmagan. Qölyozma uçun nihoyatda e'tibor bilan sifatli ohorlangan va silliqlangan Qöqon qoğozi tanlangan.

Qölyozma ança yaxşi holatda saqlangan bölsa-da, ta'mirlanişi yanada foydaliroqdir. Ayniqsa, undagi mumtoz adabiyotimizning nafis san'at asari namunalari bölgan naqş va ziynatlari zararsiz, bus-butun asraş uçun bu öta muhimdir.

Xulosa: Örganilgan manbalar va kuzatuvlar natijasida Jaloliddin Rumiy asarlari qölyozmalarining Şarq kitobati san'ati rivojida alohida örin tutişi, ilmiy va badiiy qiymatga ega ekani aniqlandi. Özbekiston Republikasi Fanlar Akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Şarqşunoslik instituti fondida saqlanayotgan Rumiy asarlari qölyozmalari orasida, avvalo, "Masnaviy ma'naviy", "Devoni ŞamsTabriziy' va "Fihi ma fihi" asarlarining borligi kuzatildi.

Tadqiqot davomida mazkur qölyozmalar badiiy bezak darajasi jihatidan bir xil emasligi aniqlandi. Ular orasida nafis bezaklar, zarhal işlanmalar, lavha, unvon, Şams va turli naqşiy kompozitsiyalar bilan bezatilgan, yuqori darajadagi kitobat san'ati namunalaridan tortib, sodda va bezaksiz köçirilgan nusxalargaça uçraydi. Bu holat Rumiy asarlrining turli davr va ijtimoiy muhitlarda keng tarqalganini hamda ularni kitobat qiliş jarayonida turli darajadagi badiiy yondaşuvlar mavjud bölganini körsatadi. Bu holatdan jamiyatda Rumiy asarlariga bölgan yuqori talab ularning badiiy jihatdan bezatilgan haşamatli nusxalari, köpçilikni taşkil etuvçi oddiy kitobxonlar ommasi uçun sodda körinişda köçirilgan nusxalarini ham yuzaga keltirgani anglaşiladi. Şu jihatdan mazkur qölyozmalarni faqat adabiy manba emas, balki davr kitobat madaniyati, badiiy didi va qölyozma kitobga bölgan munosabatni aks ettiruvçi muhim san'at yodgorliklari sifatida baholaş töğriroqdir.

Masalaning barça jihatlari umumlaştirilganda Rumiy asarlarining qölyozma nusxalarini bezak xususiyatlari, kitobat uslubi, şakliy-badiiy yeçimlari hamda yaratiliş şaroitlari asosida tizimli örganiş Şarq kitobat san'ati tarixidagi ayrim jarayonlarni yanada çuqurroq oçib berişga xizmat qiladi. Mazkur qölyozmalarni ilmiy tavsiflaş va tasniflaş ularning badiiy xususiyatlarini aniqlaş, özaro qiyoslaş hamda kelgusidagi tadqiqotlar uçun muhim ilmiy manba bazasini şakllantiriş imkonini beradi.

Foydalanilgan manbalar va adabiyotlar

1. Jaloliddin Rumiy. Masnaviy ma'naviy. ÖzR FA ŞI. №668

HSR (LONDON),
HOUGHTON STREET REVIEW JOURNAL
ISSN: 2058-5519|Impact factor-15.9
http://houghtonstreetreview.com/index.php/hsr

2. Jaloliddin Rumiy. Masnaviy ma’naviy. ÖzR FA ŞI. №669
3. Jaloliddin Rumiy. Masnaviy ma’naviy. ÖzR FA ŞI. №688
4. Jaloliddin Rumiy. Masnaviy ma’naviy. ÖzR FA ŞI. №1305
5. Jaloliddin Rumiy. Masnaviy ma’naviy. ÖzR FA ŞI. №2225
6. Jaloliddin Rumiy. Masnaviy ma’naviy. ÖzR FA ŞI. №2748
7. Jaloliddin Rumiy. Masnaviy ma’naviy. ÖzR FA ŞI. №2749
8. Jaloliddin Rumiy. Masnaviy ma’naviy. ÖzR FA ŞI. №2855
9. Jaloliddin Rumiy. Masnaviy ma’naviy. ÖzR FA ŞI. №2863
10. Jaloliddin Rumiy. Masnaviy ma’naviy. ÖzR FA ŞI. №3793
11. Jaloliddin Rumiy. Masnaviy ma’naviy. ÖzR FA ŞI. №5954
12. Jaloliddin Rumiy. Masnaviy ma’naviy. ÖzR FA ŞI. №7565
13. Jaloliddin Rumiy. Masnaviy ma’naviy. Birinçi jild, birinçi kitob. Tarjimon Asqar Mahkam. – T.: Şarq, 1999.
14. Jaloliddin Rumiy. Masnaviy ma’naviy. Birinçi kitob. Forsiydan Özbekiston xalq şoiri Jamol Kamol tarjimasi. – T.: Hilol, 2005.
15. Jaloliddin Rumiy. Masnaviy ma’naviy. Ikkinçi kitob. Forsiydan Özbekiston xalq şoiri Jamol Kamol tarjimasi. – T.: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi naşriyoti, 2002.
16. Jaloliddin Rumiy. Ma’naviyi masnaviy. Uçinçi kitob. Forsiydan Özbekiston xalq şoiri Jamol Kamol tarjimasi. – Toşkent-Tehron: Fan, 2003.
17. Abdusattor Jumanazar. Buxoro ta’lim tizimi va madrasalari tarixi. – T.: Akademnaşr, 2017. – B.195, 215, 335.